

NAVOIY VILOYATI HOKIMLIGI  
ALISHER NAVOIY XALQARO JAMOAT FONDI  
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



**“ALISHER NAVOIY  
VA SHARQ RENESSANSI”  
IV XALQARO  
SIMPOZIUMI MATERIALLARI**

**“ALISHER NAVOIY  
AND EASTERN RENAISSANCE”  
MATERIALS OF THE  
IV INTERNATIONAL SIMPOSIUM**

V-VI  
SHO‘BA

Navoiy shahri, 2025-yil, 8-9-fevral



## ALISHER NAVOIY IJODIDA FOLKLOR VA FOLKLORIZM

**Abdumurod TILAVOV,**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti,  
a.tilavov@mail.ru  
(O'zbekiston)



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodida folklor unsurlarining badiiy talqini borasida ma'lumot beriladi. Mutafakkir adibning xalq maqollari, iboralari, asotiriy tushunchalarini qo'llash mahorati misollar bilan yoritiladi.

Ijodkorning badiiy salohiyati va mahorati uning xalq og'zaki ijodini nechog'li o'zlashtirgani, shuningdek, ijodiga nechog'li tatbiq etgani bilan ham belgilanadi. Xalq inonchlar, maqol va iboralari, folklorga doir istilohlar hazrat Alisher Navoiy ijodida o'ziga xos badiiy ifodasini topgan.

Alisher Navoiy dostonlari, g'azallari, nasriy asarlarida shunday hikmatlarni keltiradiki, ba'zan ularni maqoldan ajratish oson kechmaydi. Pirovardida shoir ijodi xalq hikmat va maqollari xazinasini boyituvchi muhim manba, degan xulosaga kelinadi.

**Tayanch so'z va birikmalar:** folklor, folklorizm, maqol, ibora, anqo, navogo', giryanda, besh kunlik dunyo, vafo

**Аннотация:** В статье дается информация о художественной интерпретации фольклорных элементов в жизни и творчестве Алишера Навои. Вдумчивое мастерство писателя в использовании народных пословиц, идиом и мифологических концепций иллюстрируется примерами.

Художественный потенциал и мастерство творца определяются степенью владения им устной народной традицией, а также степенью

ее применения в своем творчестве. Народные верования, пословицы и поговорки, фольклорные термины нашли свое неповторимое художественное выражение в творчестве Хазрата Алишера Навои.

Эпосы, газели и проза Алишера Навои содержат такую мудрость, что порой их трудно отличить от пословиц. В конечном итоге делается вывод о том, что творчество поэта является важным источником, обогащающим сокровищницу народной мудрости и пословиц.

**Ключевые слова и фразы:** фольклор, фольклоризм, пословица, выражение, анко, навогу, гирянда, пятидневный мир, верность.

**Abstract:** The article provides information about the artistic interpretation of folklore elements in the life and work of Alisher Navoi. The writer's thoughtful mastery in using folk proverbs, idioms and mythological concepts is illustrated by examples.

The artistic potential and skill of the creator are determined by the degree of his mastery of oral folk tradition, as well as the degree of its application in his work. Folk beliefs, proverbs and sayings, folklore terms found their unique artistic expression in the work of Hazrat Alisher Navoi. Epics, ghazals and prose of Alisher Navoi contain such wisdom that sometimes it is difficult to distinguish them from proverbs. Ultimately, it is concluded that the poet's work is an important source enriching the treasury of folk wisdom and proverbs.

**Key words and phrases:** folklore, folklorism, proverb, expression, anko, navogu, garland, five-day peace, loyalty.



Lug'atlarda folklorizm – yozma adabiyotda qo'llanilgan og'zaki ijodga doir materiallar, muallif yoki personaj nutqidagi xalq maqol, matal hamda iboralariga nisbatan qo'llanilsa, folklorizmni "ikkinch shakl" atamasi bilan yurituvchilar ham bor. (Chistov K, 1986:217)

Ustoz Bahodir Sarimsoqovning bu boradagi ochiqlamalari yana-da aniqroqdir: "Biror ijodkor asarida biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unda ijodkor tomonidan muayyan bir ishlov berilgan bo'ladi". (Sarimsoqov, 19:42)

So'z mulkinining sultonи hazrat Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodi ustoz Natan Mallayev tomonidan maxsus tadqiq etilganini (Mallayev, 2003)



e'tirof etib, mazkur maqola shu ishning mantiqiy davomi va to'ldiruvchisi mohiyatidadir, deyishimiz mumkin.

Alisher Navoiy xalq og'zaki ijodiga doir atamalarni qo'llaydi. "Layli va Majnun" dostoni xotimasida shunday satrlarni o'qiyamiz:

*Anqoni kishi qachon qilur yod,  
Ul lahzaki bulbul etsa faryod?*

Ya'ni, bulbul chiroyli sayrab turgan bir paytda kishi afsonaviy Anqo qushini yodga olarmidi? (Navoiy, 2016:513)

Ma'lumki, Anqo (Samandar) – nomi bor-u, o'zi yo'q, afsonaviy qushga berilgan ism. Ayrim manbalardan Qof tog'ida qushlarning podshohi bo'lib yashaganligi haqida ham aytildi. Tilimizdagi "Anqoning urug'i" iborasidagi "urug" so'zi aslida shu qushning tuxumi ma'nosida kelgan.

Hazrat Navoiy bu o'rinda soxta va chin oshiqni farqlashda ushbu "Anqo qushi" detalidan foydalangan. Ta'bir joiz bo'lsa, shoirning ushbu bayti xalqimizga xos "Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi" maqoli mazmunidan ham yiroq emas. Shoir fikrini davom ettirib yozadi:

*Some' necha bo'lsa dardparvard,  
Afsonada ham kerakdurur dard.*

Some' – eshituvchi, tinglovchi, dardparvard – dard ichida o'sgan, dardga yo'liqqan, dardli, muxlis, ishtiyoqmand. Shoir so'zlovchi-notiqqa xitob qilib: seni eshitguvchi seni huzuringga sendan umid bilan nimadir olaman; ilm-ma'rifatimni oshiraman, ma'naviy xastaliklarimga davo topaman, degan niyatda kelgan muxlismi, demak, sen unga hatto afsonani aytsang hamki, dard bilan, aniqrog'i – ixlos bilan ayt, demoqchi.

Chunonchi, bundan avvalgi baytda ham shoir dard va hol so'zlarini alohida ta'kidlab takrorlaydi:

*Insong'a erur, kamol matlub,  
Andin dog'i dard-u hol matlub.*

*Har kimga ulum bo'lsa vosil,  
Gar dardi-yu holi yo'q – ne hosi?*

Shoir aytmoqchiki, "inson bu dunyoga kamolot kasb etmoq" uchun, shuningdek, dard va hol talabida kelgan. U bir necha ilmlarni egallasa-yu, unda dard va hol – ixlos bo'lmasa, bunday ilmlardan nima foyda?!

Muborak manbalarda hamma ilm egalari, hatto ilmiga amal qiluvchilar ham halokatga uchrashi, faqatgina olgan ilmiga ixlos bilan (*ta'kid bizdan* – A.T.) amal qiluvchi olimlargina najot topishi aytildi. Bu insonni beixtiyor tafakkurga, tadabburga va ibratga yetaklovchi ogohnomadir. Xalqimiz esa ixlosning ahamiyatini "Ixlos – xalos" maqoli bilan bayon etgan. (O'zbek xalq maqollari, 2012:215)

*Qil o'tqa nazorikim, kuyar chog',  
Suv o'chirur ani, yondirur yog'.*

"O't yonayotgan paytda qaragin: suv uni o'chirsa, yog' yondiradi". Alisher Navoiy bu o'rinda ishq, ma'rifat yo'liga qadam qo'yan tolib uchun e'tibor, tarbiya, mehr lozim, e'tiborsizlik, qo'pollik, loqaydlik tolibdagi ishq, iste'dod olovini so'ndiruvchi suv misolidir, demoqchilar nazarimizda.

Bu pand-nasihat har bir tarbiyalovchi uchun navoiyona ta'lim, tarbiya uslubidir aslida.

*Men dag'i bu maynikim suzubmen,  
Turkona surud anga tuzubmen.*

Men bu mayni (dostonni) suzib, unga turkona kuy bastaladim. (Ya'ni, dostonni turkiychada yozdim) "Navoiy asarlari lug'ati"da surudga quyidagicha izoh berilgan: "Surud – ashula, qo'shiq, kuylash, musiqa; surud tortmoq – kuylamoq; surud yasamoq – ashula qilmoq, kuya solmoq". (Navoiy, 2023:475)

Navbatdagi baytda hazrat Navoiy marosim folklori, aniqrog'i motam marosimiga doir "navha" so'zidan foydalanganiga guvoh bo'lamiz.

*El ko'ngliga andin o'lg'usi jup,  
Kim keldi bu navhaning mungi ko'p.*

"Bu nag'ma el ko'ngliga muvofiq keladi, chunki bu navhaning – marsiya, yig'i-yo'qloving mungi ko'proqdir".



Alisher Navoiy asarlarida "nahva"ga jinsdosh ko'plab so'zlar qo'llanilgan. Jumladan, navhagar – navha qiluvchi, un(dod) solib yig'lovchi; navha ko'ki – motam mashqi, o'limda chalinadigan mashq (ohang solib yig'lash); navhapardoz – nola qilib, un tortib yig'lovchi; navhasoz – navha tuzuvchi, un tortuvchi, nola qiluvchi; navhasozlik – un tuzib yig'lashlik. (Navoiy, 2023:371, 372)

Xalqimiz motam marosimida bunday "vazifalar"ni bajaruvchi ayol-larga "navhachi", "giryanda", "giyranda" atamalarini ishlatadi. "Bir pul berib yig'latdim, ming pul berib yupatdim (to'xtatdim)" maqoli aynan shu "kasb egalari" haqidadir.

Qadimda, uyida biror yaqin odami o'lsa, mayyit egasi giryandani chaqirgan. U aza davomida ma'lum haq evaziga ayollar davrasida "yig'-lab berish"ni bo'yniga olgan. Azada yig'layotgan ayollar biroz tin olish maqsadida navhachi ayoldan to'xtashini so'rashgan. U esa atayin avjiga chiqqan. Shunda uni to'xtatish uchun ko'proq pul berilgan. Ha, "maqollar mazmuni ularning o'zi va tabiati kabi sirli olamga egadir". (Madayev, 2012:62)

Hazrat Navoiy "Yo Rab, men bu satrlarda ba'zi sirli ma'nolarni yashirib qo'ydim. Kim xolis niyat, muhabbat va ixlos bilan o'qisa, o'qiganlarini andisha bilan o'ylab tafakkur qilsa va:

*Ayb istamak bo'lmasa murodi,  
Ber borcha hunor sori kushodi –*

deya o'quvchi haqiga xayrli tilak bildiradi. Ya'ni, o'quvchining maqsadi, bu ishimdan ayb qidirish bo'lmasa, Allohim, uning yo'llarini ochgin, mushkullarini oson qilgin, demoqda shoir.

Bolalar folkloriga oid alla janri haqida folklorshunoslar o'rtasida farqli qarashlar bor. Ayrim mutaxassislar "alla" "Alloh", "Razzoq" ismlari bilan bog'liq deyishadi va fikrlarining isboti o'laroq quyidagi alla matnlarini keltirishadi:

*Allaning oti Haqdir,  
Haqdan dilagim ko'pdir.  
Yetirsa dilagimga Alloh,  
O'lsm armonim yo'qdir.*

*Allaning oti Razzoq, alla,  
Umringni bersin uzoq, alla...*

Ayrim folklorshunoslar XX asr boshida keng iste'molda bo'lgan "ashula" atamasini "lirk qo'shiq" o'rnida ishlatishni lozim topadi va "ashula", "yalla", "alla" so'zлari tarkibidagi "la" qo'shimchasiga diqqat qaratadi. (Turdimov, 2022: 25)

Hazrat Navoiy "Farhod va Shirin" dostoni beshinchi bobida yozadi:

*Beshik davrida chini-yu xitoyi,  
Bo'lub yuz no'shlab dastonsaroyi.*

*Ko'zining nozi eldin eltib uyqu,  
Anga uyqu keturmakka navogo'.*

Akademik G'afur G'ulom ushbu baytlarni quyidagicha nasriy bayon qiladi: "Beshik atrofida chinliklar va xitoyliklar yig'ilib, yuz ohang bilan alla aytar edilar. Bolaning ko'zidagi noz boshqalarning ko'zidan uyqusini qochirar va ular Farhodning uyqusini keltirish uchun alla aytar edilar".

Muhtaram ustoz Omonulla Madayev to'g'ri ta'kidlaganlaridek: "Farhodning ulg'ayishida buyuk Navoiy havas qilarli darajada barkamol inson bo'lib yetishishida ana shu allalar ta'sirini kim inkor etadi. Axir, dunyo tangan olimlarimiz, g'azal-u dostonlar bitgan adiblarimiz go'dakligida alla eshitib ulg'aygan-ku". (Madayev, 2010:210)

Alisher Navoiy "Xamsa"ning beshinchi dostoni "Saddi Iskandariy"da Iskandarning uylanish to'yida o'lan, yor-yor aytish bilan tomoshalar ko'r-satilganini tasvirlaydi:

*Mug'anniy tuzib chinga vaznida chang  
Navo chekdi, hay-hay o'lang, jon o'lang.*

*Desang senki: "Jon qardoshim, yor-yor!"  
Men aytayki: "Munglug' boshim, yor-yor!" (Navoiy; 117)*

Alisher Navoiy asarlaridagi hikmatlar maqolga tengdir. Ma'nomazman teranligidan ularni bir-biridan farqlashga qiynalasiz. Qiyoslash usulidan foydalanib, ayrim misollar bilangina kifoyalanamiz:



*Vatan tarkini bir nafas aylama,  
Yana ranji g'urbat havas aylama.*

Qiyoslang:  
*Vatan gadosi – kafan gadosi.*

Yoki shu maqolning yan bir varianti:  
*O'zga yurtda sulton bo'lguncha,  
O'z yurtingda ulton bo'l.*

\*\*\*

*Yomon bilan yaxshi orasi ko'p farqdur,  
Ikki kemaning uchin tutqon g'arqdur.*

Qiyoslang:  
*Ikki kemaning uchini tutgan g'arq bo'ladi.*

\*\*\*

*Kimki falak sori otar toshni,  
Tosh ila ozurda etar boshni.*

Yoki yana bir baytda shunday keladi:  
*Har kishikim birovga qozg'oy choh,  
Tushgay ul choh aro o'zi nogoh.*

Qiyoslang:  
*Birovga choh qazisang, unga o'zing tushasan.*

\*\*\*

*O'qlaring ko'nglumga tushkach kuydi ham ko'z, ham badan  
Kim, kuyar o'lu qurug' chun nayyistong'a tushti o't.*

Qiyoslang:

*O'rmonga o't ketsa, ho'l-u quruq baravar yonadi.*

Inson ko'nglining Yaratgan nazdidagi darajasi, qadri haqida "Dilozor-dan xudo bezor"ligi borasida maqollarimiz talaygina. Masalan:

*Bir ko'ngil imorati, ming Makka ziyorati.*

Bir qarashda bu mubolag'ali qiyos, ifodaga o'xshaydi. Biroq hazrat Alisher Navoiyning quyidagi satrlari o'zbek maqolining mazmun-mohiyatini anglashimizga yordam beradi va ayni paytda bizni sergak torttiradi:

*Ka'baki olamning o'lub qiblasi,  
Qadri yo'q andoqki ko'ngul Ka'basi.  
Kim bu – xaloyiqg'a erur sajdagoh,  
Ul biri – Xoliqg'a erur jilvagoh.*

Xalqona mo'jaz ifodalar, iboralar, purhikmat so'zlar. hazrat Alisher Navoiy hayotiga oid asarlarda ham uchraydi. Xondamir "Makorim ul axloq"da keltirishicha, musiqa va maqollar fanida o'z davrining yagonasi bo'lgan Mavlono Alishoh, bir kuni Alisher Navoiyga arz qilib, g'alati taklif aytadi:

– *Sizning behad iltifotingiz va marhamatingizdan umidim shuki, har oy (maoshimni olay deb) mulozimlarga bosh og'rig'i bo'lib yurmasligim uchun, vaqf ishlarini boshqaruvchilarining olti oylik maoshimni bir yo'la berishlari to'g'risida buyruq chiqarsangiz, degandim.*

Alisher Navoiy bu ustozga bir hayotiy haqiqatni eslatadilar:

– *Mavlono, umrimizdan(olti oy tugul) olti kuni qolganmi, yo'qmi bizga ma'lum emas. Shunday ekan, nima sababdan bizga omonat berilgan bu hayotga bunchalik ishonib, bir yo'la olti oylik maoshingizni berishlarini so'rapsiz?*

Mavlono janoblari "bo'sh kelmay" taklifini "asoslashga" urinadi va:

– *Siz o'sha pullarni menga berishlari to'g'risida buyruqni beravering, bordi-yu (olti oy ichida) o'lib qoladigan bo'lsam, go'r-kafanimga yarab qolar,* – deydi. Shunda hazrat Navoiy xalqimiz orasida ma'lum va mashhur bir iborani aytadilar:

– *O'ligliyam bir balo, tirigliyam bir balo, deganlari siz ekansiz-da.* (Navoiy, 2016: 395)

Bu topib, o'z o'rnida qo'llangan xalqona ibora! Suhbatdoshining ko'nglini og'ritmay chiroyli dars berishning Navoiyga xos usulidir, nazarimizda.

Yana bir shunga o'xshash voqeada Alisher Navoiyning xalq og'zaki ijodidan yaxshi xabardor ekaniga guvoh bo'lamiz. Bunda shoir hozirgi kunda ham dolzarb mavzu va muammo bo'lib turgan oila, er-xotin vazifalariga ishora qiladilar. Shuningdek, shoirning badihago'ylik fazilatlari namoyon bo'lganiga amin bo'lasiz.

Amirning tanishlaridan bo'lgan bir kampir bir tegirmon borasidagi da'vo yuzasidan devonga tinimsiz kelib-ketar va janjal qilardi. Hazrat Navoiy bu kampirga nasihat qilib:



- *Bunday ishlar uchun ering kelib-ketgani ma'qul, - dedilar. U (kampir) bunga javoban:*

- *Tirikchiligidizning o'tishi ana shu tegirmonning bizning tasarrufimizga o'tishiga bog'liq, shu sababdan men bilan erim birgalikda bu ishning orqasidan yuguramiz, -*

dedi. Shoir yana bir marta, ayollarning bunday ishlar ketidan yugurib yurishi munosib ish emasligini ta'kidlab, ushbu forsiy baytni aytadilar:

*Mard shitobon beh va zan bo darang,  
Ord naxizad chu bujunbad du sang.*

Mazmuni: Erkakning tez yurgani, ayolning esa sekin harakat qilgani yaxshidir. Agar (tegirmondagi) toshning har ikkalasi ham (baravariga) aylansa, un chiqmaydi. (Xondamir, 2018:195)

Aslida hazrat Navoiy bu latifanamo bayt orqali nafaqat o'sha kam-pirga va uni saroyga yuborgan mas'uliyatsiz eriga, qolaversa, keyingi avlodlarga ham oilada er-xotin vazifalari va majburiyatlar borasida ta'lif bermoqdalar.

Xalqimizda "besh kunlik dunyo" tushunchasi mavjud. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, bu qadimgi Erondag'i barcha oyi 30 kundan iborat shamsiy taqvimga "sig'may" qolgan va xalq bayrami qilib e'lon qilingan besh kunga ishoradir. Shu besh kun ichida masxaraboz shohning rosmana liboslarini kiyib, shoh "rol"ini o'ynagan; odamlarni xursand qilgan. Besh kundan so'ng masxaraboz ham, xalq ham yana o'z holiga qaytgan.

Mutafakkirlar dunyo hayotini shu besh kunlik o'tkinchi xursandchilikka o'xshatishgan: odam bir yayrab oladi-yu, keyin "eski hammom, eski tos".

O'zbek xalq dostoni "Erali va Sherali" dostonida "Besh kunlik dunyoda o'ynab qolaylik" misralari, turk baxshisi Oshiq Vaysalning: "Besh kunlik dunyoda, ey odam o'g'li, injitma jonni..." deb boshlanuvchi termlarida ayni mazmun mujassam.

Hazrat Alisher Navoiy ana shu xalqona falsafiy iboraning mazmun-mohiyatini quyidagi misralarida zo'r badiiy mahorat bilan ifodalaydi:

*Dahr sududin tama' uzkim, ziyoni besh emas,  
Umrni tutgil g'animatkim, zamoni besh emas.  
Uy bino aylab ajabtur elni minhon aylamak,  
Ulki bu uy ichra besh kun mihmoni besh emas. (Navoiy, 2016:504)*

Deyilmochchiki, bu dunyo foydasi (orzu-havaslari) dan umidingni uzginki, ziyoni kam emas. (Bundan senga foyda bor). Ularni g'animat bilginki, u juda uzoq (abadiy) emas. Uy bino qilib, xalqni mehmon qilganga ajablanaman. Negaki, o'zi ham mehmon, ham ko'p turmaydi (Besh kunlik dunyo).

Dunyoning o'tkinchiligi, foniyligi borasidagi haqiqatning badiiy ifodasi hazrat Navoiyning quyidagi satrlarida ham ta'sirli tasvirlangan:

*Ey ko'ngil, boqmag'il jahon ishiga,  
Ki jahon qilmadi vafo kishig'a.  
Biz ulug'rak kesak erur bu jahon,  
Ki erur ko'pragi suv ichra nihon. (Navoiy; 2016:402)*

Ha, shoir bu dunyoni ulkan suv ustidagi hali zamon erib ketishga mahkum ulkan kesakka mengzatmoqda va bu olam "besh kunlik dunyo" ekanligidan ogoh etmoqda. Bu ogohnomani keltirishga ta'sir etgan mamba quyidagi ilohiy kalomlar bo'lsa ne ajab:

*"Yerda yillar hisobi (bilan fikringiz) bo'yicha qancha turdingiz?"-deydi (Alloh). Ular aytadilar: "Bir kun yoki yarim kun. Sanab turuvchi (farishtalar) dan so'ragin!" (Mu'minun, 112-113: Abdulaziz Mansur: 349)*

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodiga xos xususiyatlar Alisher Navoiy ijodida o'zining go'zal badiiy ifodasini topgan. Xalq maqollari, iboralari shoir ijodini bezagani kabi, nasr va nazmdagi javohirlar-hikmat va ibratlar folklor xazinasi yana-da boyishiga xizmat qilgan.

#### Adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. T.: "Toshkent islam universiteti", 2009. – 624 b.
2. Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. T.: "Sano-standart", 2016. – 526 b.
3. Mallayev Natan. Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodi. T.: G'afur G'u-lom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. – 384 b.
4. Madayev Omonilla. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T.: "Mumtoz so'z", 2010. – 228 b.
5. Navoiy asarlari lug'ati. T.: "Akademnashr", 2023. – 620 b.



6. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul axloq. Tarjimon: Karimjon Rahimov. T.: "Yoshlar" nashriyot uyi, 2018. – 236 b.
7. Sarimsoqov B. Badiylik asoslari. T.: "Fan", 2005. – 68 b.
8. Turdimov Sh. Xalq qo'shiqlarida ramz. T.: "Fan", 2005. – 68-b.
9. O'zbek xalq maqollari. T. "Sharq" NMAK, 2012. – 456 b.
10. Chistov K.V. Narodnik tradisii i folklor. Ocherki teorii. Leningrad izdategstvo. "Naukax". Leningradskoye otdeleniye, 1986, 217.

## NAVOIY NA'T G'AZALLARIDA MUHAMMAD PAYG'AMBAR (S. A. V.) FAZILATLARI TALQINI

**Ziyoda G'AFFOROVA,**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti  
ziyodanasriddinovna@gmail.com  
(O'zbekiston)



**Annotatsiya:** Ma'ruzada buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning na't g'azallarida Muhammad payg'ambar (s. a. v.) fazilatlari talqini tahlil etiladi. Bunda Navoiy Qur'on oyatlari va hadislarga qat'iy su-yangani, ko'plab Sharq, shuningdek, G'arb dunyosidagi ne-ne buyuk zotlarning oxirzamon payg'ambari (s. a. v.) haqidagi ta'rifu tavsiflari bilan shoir g'azallaridagi talqinlar o'rtasidagi vobastaliklar, na't g'azallari qahramonining go'zal xulqi, jozibador nutqi, to'g'riso'zligi va boshqa fazilatlari ko'rib chiqiladi. Shu tariqa bu g'azallarda Muhammad (s. a. v.) siymosi faqatgina dinning asoschisi, mo'jizakor yoki o'zining go'zal axloqi bilan hammaga namuna bo'la olgan payg'ambar sifatidagina emas, balki komillik timsoliga aylangan hazrati inson qiyofasida gavdalantirilgani ko'rsatiladi.

**Tayanch tushunchalar:** Alloh, Qur'on, nubuvvat, Muhammad, hadis, xulq, komil inson, g'azal, na't, vasf na't g'azallar, me'rojnama na't g'azallar.

**Аннотация:** В докладе анализируется трактовка положительных качеств пророка Мухаммада (с. а. в.) в газельях наът великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои. Для этого рассматриваются как Навои принципиально опирается на аяты Корана и хадисы, связи толкования поэта с характеристиками многих великих восточных, а также западных мыслителей, описания положительные поведения, его притягивающая речь, правдоречивость и другие качества герояв газельях наът. Таким образом показывается, что в



## MUNDARIJA

### V SHO'BA

#### ALISHER NAVOIY: ADABIYOT, MA'NAVIYAT VA SHARQONA TAFAKKURNING ABADIY SARCHASHMASI

|  |     |
|--|-----|
| <i>Boqijon To'xliyev</i> (O'zbekiston)   |     |
| Qadimi adabiy-ma'naviy xazinalar siri va ularni anglatishda hazrat Navoiy ta'biri.....   | 4   |
| <i>Galib Sayilov</i> (Ozarboyjon)  |     |
| Roman stixiyasinda "Ali Şir Novayi"obrazinin didaktik interperetesiyasi (Tanınmış özbek yazarı İsacan Sultanın "Ali Şir" romanı esasında) ("Alisher Navoiy" obrazining roman uslubida didaktik talqini (Taniqli o'zbek yozuvchisi Isajon Sultonning "Alisher" romani asosida) .... | 23  |
| <i>Quronov Dilmurod</i> (O'zbekiston)  |     |
| "Хамса" достонларининг "Ўткан кунлар"даги изларига доир. ....  | 29  |
| <i>Bahodir Karim</i> (O'zbekiston)   |     |
| Жадидлар адиларининг Алишер Навоийга муносабати хусусида айрим мулоҳазалар.....  | 47  |
| <i>Nusratullo Jumaxo'ja</i> (O'zbekiston)  |     |
| Alisher Navoyining yoshlik lirikasiga mansub mustazodlari poetikasi.....   | 58  |
| <i>Siyamek Hüsseynizade</i> (Eron)   |     |
| 19.cu yüzyılın ünlü şairi Muhammed Rıza Agehi'nin şiirlerinde Amir Ali Şir Nevai'nin etkileri. (XIX asrning mashhur shoiri Muhammad Rizo Oghahiy she'rlarida Amir Alisher Navoiy ta'siri.).....  | 83  |
| <i>Jamshid Noroozi</i> (Eron)  |     |
| امیر علیشیر در منابع تیموریان هند؛ مطالعه موردی: بابرنامه؛ تاریخ الفی (Hindiston Temuriylari manbalarida Amir Alisher; Tadqiqot manbai: Boburnoma; Alfiy tarixi.) .....  | 97  |
| <i>Mahmudov Ravshanbek</i> (O'zbekiston)   |     |
| Yangi O'zbekiston buniyodkorlarini tarbiyalashda Alisher Navoiy ma'naviy merosining roli.....  | 120 |
| <i>Ahmet Akalin</i> (Turkiya)  |     |
| Nevali'nin Yeni Özbekistan'ın İmajını İnşa Etmedeki Simgesel Katkısı. (Navoiyning Yangi O'zbekiston qiyofasini shakllantirishga qo'shgan   |     |

ramziy hissasi.) ..... 134

*Rustamiy Salimaxon* (O'zbekiston)

Alisher Navoiyning "Mahbubu-l-qulub" asarida tilning badiiy vazifasidan foydalanish mahorati..... 146

*Nargiza Shoaliyeva* (O'zbekiston)

"Foniy devon"idagi irfoniy qarashlarning badiiy talqini. .... 162

*Shahlo Hojiyeva* (O'zbekiston)

Alisher Navoiy va mumtoz she'riyat an'analarining Cho'lpon lirikasida yangilanishi..... 187

*Abdumurod Tilavov* (O'zbekiston)

Alisher Navoiy ijodida folklor va folklorizm..... 204

*Ziyoda G'afforova* (O'zbekiston)

Navoiy na't g'azallarida Muhammad payg'ambar (s.a.v.) fazilatlari talqini..... 215

*Saidakbarova Muqaddas*, G'ulomjonova Xurshida, Yuldasheva Gulonom (O'zbekiston)

"Makorimul-Axloq"da Navoiy shaxsiyatining fenomenik xususiyatlari .... 227

*Diyora Abdujalilova* (O'zbekiston)

"Hayrat ul-Abror" va "Gulshan ul-Anvor" dostonlarining poetik arxitektonikasi..... 246

### VI SHO'BA

#### ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSI: ILM-FAN, MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MUSHTARAKLIGI

*Qozoqboy Yo'ldosh* (O'zbekiston)

Бадиий қамров кўлами. .... 258

*Bedirhan Ahmedli* (Ozarboyjon)

Çağdaş Azerbaycan edebiyat çalışmaları bağlamında Ali Şir Nevai'nin yaratıcılığı (Alisher Navoiy ijodi zamonaviy Ozarbayjon adabiyotshunosligi kontekstida.) ..... 269

*Sultonmurod Olim* (O'zbekiston)

Навоий ва турк дунёси (Masalalining қўйилиши) ..... 277